



UDK: 050/070:654.19(575.1)

Sevara URINBAYEVA,

Adliya vazirligi "Adolat" MHAM bo'limi boshlig'i, O'zDJTU mustaqil izlanuvchisi

E-mail:s.urinbaeva.85@gmail.com

O'zDJTU professori, f.f.d A.Karimov taqrizi asosida

THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND ETHICAL ISSUES IN COMMUNICATING INFORMATION IN PUBLIC RELATIONS

Annotation

The article discusses the mechanisms of using artificial intelligence in public relations, ethical issues, information exchange and dissemination in the process of digitization, the use of artificial intelligence technologies in PR services, and their role and place in establishing and developing public relations.

Key words: Public relations, artificial intelligence, chat-bot, ChatGPT, communication with the people, government agencies, training of specialists, content creation, information, internet, social networks.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЭТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ В ДОВЕДЕНИИ ИНФОРМАЦИИ В СВЯЗЯХ С ОБЩЕСТВЕННОСТЬЮ

Аннотация

В статье рассматриваются механизмы использования искусственного интеллекта в связях с общественностью, этические вопросы, обмен и распространение информации в процессе оцифровки, использование технологий искусственного интеллекта в PR-службах, их роль и место в установлении и развитии связей с общественностью.

Ключевые слова: Связи с общественностью, искусственный интеллект, чат-бот, ChatGPT, общение с людьми, государственные учреждения, подготовка специалистов, создание контента, информация, Интернет, социальные сети.

JAMOATCHILIK BILAN ALOQALARDA AXBOROTNI YETKAZISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH VA ETIKA MASALALARI

Annotatsiya

Maqolada jamoatchilik bilan aloqalarda axborotni yetkazishda sun'iy intellektdan foydalanish mexanizmlari, etika masalalari, raqamlashuv jarayonida axborot almashish va tarqatish, sun'iy intellekt texnologiyalaridan PR xizmatlarida foydalanish, ular orqali jamoatchilik bilan aloqalarni yo'lga qo'yish va rivojlantirishdagi roli va o'rni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Jamoatchilik bilan aloqalar, sun'iy intellekt, chat-bot, ChatGPT, xalq bilan muloqot, davlat organlari, mutaxassislarni tayyorlash, kontent yaratish, axborot, internet, ijtimoiy tarmoqlar.

Kirish. Sun'iy intellektsiz hozirgi davr texnologiyasini tasavvur qilish qiyin — u to'rtinchi sanoat inqilobining markazida. Bugungi zamonaviy duyoni sun'iy intellektsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Deyarli barcha sohalarga sun'iy intellekt kirib bormoqda. Zamonaviy sun'iy intellekt — bu turli funksiyalarni bajara oladigan algoritmlar va dasturiy tizimlardan tashkil topgan murakkab tizim bo'lib, u inson ongiga xos bo'lgan bir qator vazifalarni axborot bazasiga kiritilgan ma'lumotlar asosida bajara oladi. Sun'iy intellekt katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, mantiqan izchil xulosa chiqarish, muammolarga yechim taklif etish va samarali tavsiyalar berish kabi imkoniyatlarga ega bo'lgan "aqlli" texnologiya sifatida e'tirof etilmoqda. Bugungi kunda mutaxassislarni sun'iy intellektni to'rtinchi sanoat inqilobining markaziy ustuni, uning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko'rishmoqda [1].

So'nggi yillarda sun'iy intellekt eng muhim va dolzarb mavzulardan biriga aylandi. AQSh va Xitoy kabi yetakchi davlatlar ushbu texnologiyaning salohiyatini erta anglab yetib, uni rivojlantirish yo'lida hukumat darajasida ham, xususiy sektor orqali ham katta sarmoyalar yo'naltirishmoqda.

Mana, masalan, joriy yilgi saylovlarda ham sun'iy intellektdan keng foydalanildi. Prezidentimiz tomonidan mazkur masala ham e'tibordan chetda qolmadi. Mamlakatda sun'iy intellekt sohasini tizimli rivojlantirish maqsadida, Prezident tomonidan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-

yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi [2].

Shuningdek, undan foydalanishning huquqiy asoslarini yaratishga qaratilgan qonun ishlab chiqish lozimligi ta'kidlab o'tildi.

Hukumatning sun'iy intellektga tayyorlik indeksida (Government AI Readiness Index) O'zbekiston birinchi 50 talikdan o'rin oladigan davlatlar qatoriga kirishga erishishi belgilandi [3].

Bugun sun'iy intellekt butun dunyoda faol qo'llanilishda davom etmoqda. 2024-yilda ChatGPT'ning foydalanuvchilar soni sezilarli darajada oshdi. Similarweb ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil sentabr oyida ChatGPT'ga 3.1 milliard tashrif buyurilgan bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan 112% o'sganini ko'rsatdi. Shuningdek, 2024-yil oktyabr oyida bu raqam 3.7 milliardga yetdi, bu esa yil davomida 115.9% o'sganini anglatadi [4].

Foydalanuvchilar soniga kelsak, 2024-yil dekabr oyida ChatGPT haftalik faol foydalanuvchilari soni 300 millionga yetdi. 2025-yil fevral oyida esa bu ko'rsatkich 400 millionga oshdi [5].

O'zbekistonda sun'iy intellektga asoslangan xizmatlar ham ommalashmoqda. 2022-yilda O'zbekiston Jahon bankining Davlatlarning texnologiyaga tayyorlik indeksida 43-o'rinni egallagani ham ijobiy tendensiyadan dalolat beradi. Davlat xizmatlarida raqamli ko'nikmalar va innovatsiyalar sub-indeksi bo'yicha mamlakat dunyoda 4-o'rinni egalladi [6].

Bugungi kunda O'zbekiston ham sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanuvchi davlatlar safidan o'rin olmoqda. Ayni paytda eng mashhur sun'iy intellekt tizimlaridan biri — bu ChatGPT bo'lib, u neyron tarmoqlarga asoslangan ilg'or texnologiya sifatida tanilgan. 2023-yil boshidan boshlab ushbu tizimdan o'zbekistonlik foydalanuvchilarga ham erkin foydalanish imkoniyati yaratildi [7]. Umuman olganda, SI — bu savollarga javob berish, matn yaratish, tasvir hosil qilish, ma'lumotlarni tahlil qilish va qayta ishlash kabi murakkab vazifalarni mustaqil bajara oladigan aqlli kompyuter tizimidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. “Sun'iy intellekt PR mutaxassislariga nafaqat tezkorlik, balki aniqlik ham beradi. Ammo bu texnologiyalar insoniy hissiyotlarni to'liq tushunmaydi, shuning uchun ularni ehtiyotkorlik bilan qo'llash lozim”, deydi Avstraliyadagi Sunshine Coast universitetining Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha katta o'qituvchisi, Oliy Ta'lim akademiasining katta ilmiy xodimi, “Strategik aloqa uchun sun'iy intellekt” (“Artificial Intelligence for Strategic Communication”) kitobi muallifi Karen E. Sutherland. Ushbu kitobda sun'iy intellekt vositalarining (ChatGPT, Jasper AI, Grammarly va boshqalar) strategik PR faoliyatida qanday ishlatilishi haqida so'z boradi. Ular orqali press relizlar yozish, auditoriyani tahlil qilish, krizis kommunikatsiyasini tezkor boshqarish usullari haqida ma'lumotlar berilgan [8].

“Sun'iy intellekt, strategik kommunikatorlar va faollik” (“Artificial Intelligence, Strategic Communicators and Activism”) kitobi hammualliflaridan biri, Avstraliyadagi Yangi Janubiy Uels Universitetining San'at va OAV maktabi o'qituvchisi Lukasz Swiatek esa “SI nafaqat vosita, balki ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun kuchli quroldir. PR mutaxassislari noto'g'ri axborotga qarshi kurashish va jamoatchilikka haqqoniy haqiqatni yetkazishda SI vositalaridan foydalansa bo'ladi [9]”, deb aytgan.

Bentley universiteti dotsentlari, “Strategik aloqa va AI: aqlli foydalanuvchi interfeyslari bilan jamoatchilik bilan aloqalar” (“Strategic Communication and AI: Public Relations with Intelligent User Interfaces”) kitobi mualliflari Simon Moore va Roland Hübscherlar “SI orqali auditoriyani segmentlash, tajriba asosida kontentni shaxsiylashtirish va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari yordamida PR ishlarini soddalashtirish mumkin [10]” ligini aytishgan. Shu bilan birga, SI har bir auditoriya guruhiga mos xabarlarini avtomatik ravishda yaratish imkonini berishini, ammo bu insonlarda bor xislatlarni ko'rsatib berolmasligini ta'kidlashgan. Diplomatiya akademiasining mutaxassislari Yevgeniy Pashensev va Vadim Kozyulin tomonidan yozilib, 2024-yilda nashr etilgan “Sun'iy intellekt va geosiyosat [11]” kitobida esa sun'iy intellektning xalqaro munosabatlar va xavfsizlikka ta'siri tahlil qilinadi. SI texnologiyalarining diplomatik amaliyotlarga, muzokaralarga va qaror qabul qilish jarayonlariga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanishning jamoatchilik bilan aloqalardagi roli va bu jarayonda yuzaga keladigan etik muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti jamoatchilik bilan aloqalarda axborot yetkazish jarayoni bo'lsa, tadqiqot predmeti esa sun'iy intellektidan foydalanishning kommunikatsion va etik jihatlarini ochib beradi. Tadqiqotning asosiy maqsadi SI vositalari orqali axborot yetkazish amaliyoti qanday tashkil etilayotganini o'rganish va bu jarayon qanday etik muammolarni keltirib chiqarayotganini aniqlash hisoblanadi. Tadqiqot olib borishda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli, mantiqiy, statistik, qiyosiy-huquqiy usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotda aralash uslublar (mixed methods) tanlandi, ya'ni sifatli va miqdoriy usullar birgalikda qo'llanildi. Bu yondashuv sun'iy intellekt asosidagi kommunikatsiya jarayonini har tomonlama o'rganish imkonini

beradi. Kontent-tahlilida turli axborot platformalarida, xususan, ijtimoiy tarmoqlar, tashkilotlarining veb-saytlari, chat-botlarda SI yordamida yaratilgan xabarlar tanlab olinib, mazkur xabarlar tili, mazmuni, ohangi va etik me'yorlarga mosligi bo'yicha tahlil qilindi. Yaratilgan axborot matnlari va kommunikatsiya namunalarining mazmuniy jihatlari, shu bilan birga, so'rovnomasida jamoatchilikning SI asosidagi axborotga nisbatan munosabati statistik tomonlama o'rganildi. Jamoatchilik orasida (PR mutaxassislari, jurnalistlar, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari) onlayn so'rovnomasida o'tkazildi.

O'tkazilgan ushbu onlayn so'rovnomada qatnashgan 165 nafar respondent “Jamoatchilik bilan aloqalarda SI ko'magidan qanchalik foydalanasiz?” degan savol bo'yicha quyidagi javoblar olindi:

Jamoatchilik bilan aloqalarda SI ko'magidan foydalanuvchilar soni 32%i tashkil etishi ma'lum bo'ldi;

41% ishtirokchilar esa ba'zan foydalanishlarini;

30 %i esa deyarli umuman foydalanmasliklarini bildirishgan.

So'rovnamaning “PRda SI ko'magidan qanday maqsadlarda foydalanasiz?” degan savoliga esa 43% insonlar matnlar yaratishda foydalanishlarini, 27% i bo'lsa videokontentlar yaratishda, qolgan 30 % esa boshqa maqsadlarda foydalanishlarini bildirishgan.

Tahlil va natijalar. PR kontekstida sun'iy intellekt an'anaviy ravishda inson aralashuvini talab qiladigan, ommaviy axborot vositalari monitoringi, kontent yaratish va tahlil qilish kabi vazifalarni bajarishi mumkin. 2023-yilda OpenAI tomonidan ishlab chiqilgan GPT-4 modeli dunyo miqyosida 1 milliarddan ortiq matnli savollarga inson darajasida javob bergani aniqlangan [12]. Sun'iy intellektga asoslangan vositalar orqali PR mutaxassislari yanada samarali ishlashlari natijasida ortiqcha vaqt va resurslarni sarflamasligi mumkin. Bu esa odatiy vazifalarni avtomatlashtirish imkonini beradi [13].

Sun'iy intellektning PR dunyosiga kirishi davlat tashkilotlarning raqamli asrga moslashishga bo'lgan ehtiyojining ortishi bilan izohlanadi, bu yerda ijtimoiy tarmoqlar, doimiy ulanish va ma'lumotlarning haddan tashqari yuklanishi odatiy holdir. Bu jarayonda an'anaviy PR usullari shunchaki yetarli emas. Murakkab ma'lumotlarni boshqarish, amaliy tushunchalarga ega bo'lish va xabarlar kerakli vaqtda kerakli odamlarga yetkazilishini ta'minlash uchun SI ni qo'llash orqali muloqot rivojlanadi. Ba'zilar sun'iy intellektning PR mutaxassislarining o'rnini bosa oladimi, degan savol tug'dirishi mumkin, ammo bu bahsli masala. Sun'iy intellekt ko'plab vazifalarni avtomatlashtirishi mumkin bo'lsa-da, u inson ijodi, sezgi va hissiy intellektga bo'lgan ehtiyojini o'zini bosa olmaydi. Raqamli kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish, jumladan sun'iy intellekt texnologiyalari PR xizmatlarida kontent yaratish va tahrirlash jarayonlarini tezlashtirish va soddalashtirishda katta yordam beradi. Bu esa davlat boshqaruvida fuqarolar bilan qayta aloqani to'g'ri yo'lga qo'yishda yuqori samaradorlikni ko'rsatadi. Buning uchun aholiga amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi, vazifalari va natijalari haqida tezkor, xolis va to'liq axborot yetkazish, davlat organlari shaffofligini ta'minlaydi.

Ko'pgina afzalliklariga qaramay, sun'iy intellektning PRga integratsiyalashuvi o'ziga xos qiyinchiliklar va etika masalalari bilan birga keladi. Agar SI vositalariga to'g'ri ma'lumotlar kiritilmagan bo'lsa, ular stereotiplarni kuchaytirishi yoki jamoatchilik fikrini noto'g'ri shakllantirishi mumkin. Bundan tashqari, sun'iy intellekt kontent yaratishda yordam berishi mumkin bo'lsa-da, xabar almashishda, brendning qadriyatlariga mos kelishini ta'minlash uchun inson nazorati muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, Alga haddan tashqari ishonish kontentni shaxsiylikdan yiroq, hissiy jihatdan

sovuq qilib qo'yishi mumkin, chunki u insoniyatga xos fikrlarni va hissiyotlarni ifodalab bera olmaydi.

Mutaxassislar fikricha, sun'iy intellektning ijtimoiy va boshqa sohalarga joriy etishda shaxsga oid ma'lumotlarning daxlsizligini ta'minlash, ularni ishonchli saqlash va boshqarish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki sun'iy intellektidan foydalanish bilan bog'liq axloqiy jihatlar bugungi kunda AQSH, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar hamda yetakchi xalqaro tashkilotlar diqqat markazida bo'lib turibdi. Xususan, inson huquqlari va shaxsiy hayot maxfiylikni saqlash, shuningdek, sun'iy intellektidan siyosiy maqsadlarda yoki manipulyativ kontent yaratishda foydalanish xavfi global miqyosda dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Ba'zi olimlar esa, sun'iy intellektning kelajagi bevosita insoniyatni qanday maqsadlarda qo'llashga qaror qilishi bilan belgilanadi. Hozircha xavfsiz deb hisoblanayotgan texnologiyalar ham vaqt o'tishi bilan kuchli manipulyatsiya vositasiga aylanishi ehtimoldan holi emas. Bugungi kunda "deepfake" texnologiyasi yordamida yaratilayotgan sun'iy videolavhalar yoki mustaqil tarzda tasvir chizuvchi "Midjourney" kabi dasturlar bunga yaqqol misoldir. Aslida foydali maqsadlar uchun mo'ljallangan bu kabi vositalar ko'plab hollarda salbiy yo'nalishda — noto'g'ri ma'lumot tarqatish, yolg'on voqealarni haqiqat sifatida ko'rsatish kabi xavfli holatlarda qo'llanmoqda. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda mashhur siyosatchilar yoki taniqli shaxslarning "Midjourney" orqali yaratilgan kulgili yoki haqoratli tasvirlari virus kabi tezlikda tarqalmoqda. AQSH sobiq prezidenti Donald Trampning go'yoki politiya tomonidan qo'lga olinayotgani yoki Rim papasining noodatiy kiyimlarda aks etgan tasvirlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Afsuski, bunday soxta kontent ko'plab odamlar tomonidan haqiqat deb qabul qilinmoqda, bu esa jamiyatda noto'g'ri tushunchalar, munozaralar va qarama-qarshiliklarga sabab bo'lmoqda. Eng xavotirli jihati — bu holat mashhur insonlarning obro'siga putur yetkazish bilan birga, ayrim hollarda sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'magirik vositasiga aylanishiga ham olib kelmoqda [14].

Ayrim davlatlar, jumladan Xitoy va Rossiya sun'iy intellekt hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan

furqatlarining shaxsiy huquq va erkinliklarini cheklash, shuningdek, siyosiy maqsadlarda foydalanayotgani haqida jiddiy e'tiroz va tanqidlar bildirilmoqda. Shu bois, sun'iy intellektidan foydalanish bo'yicha huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqishda mazkur jihatlar alohida e'tibor qaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi [15].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasidagi nutqida ham "Hozirgi kunda barcha jabhalarga keng kirib kelayotgan sun'iy intellekt sohasida tizimli hamkorlikni kuchaytirishni bugungi zamonning o'zi bizdan talab etmoqda.

Sun'iy intellektidan foydalanish etikasi bo'yicha qonun ishlab chiqilsa, ushbu innovatsion huquqiy asos dunyo miqyosida tez rivojlanayotgan ushbu sohani samarali tartibga solishda barcha davlatlar uchun o'ziga xos namuna bo'lar edi" [16], deya ta'kidlagan. Hozirgi kunda sun'iy intellekt ishtirokidagi munosabatlar qonunchiligimizda mustahkamlanmoqda [17].

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rinda aytish joiz, sun'iy intellektning jadal rivojlanishi nafaqat texnologik yutuqlar, balki axloqiy me'yorlar, shaxsiy hayot daxlsizligi va axborot xavfsizligi borasida ham yangi savollar va muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois, ushbu sohani tartibga soluvchi aniq va samarali qonun-qoidalarni ishlab chiqish, axborot siyosati va PR yo'nalishlarida sun'iy intellektidan oqilona va mas'uliyat bilan foydalanish uchun mutaxassislarni tayyorlash, kontent yaratishda yoki qaror qabul qilishda har doim natijalarni tekshirish va professional tajriba hamda bilimga tayanib ish tutish muhimdir. PR sohasida SI etikasi bo'yicha aniq standartlar va reglamentlar joriy etilishi zarur. Shuningdek, har qanday SI vositasi orqali yetkaziladigan axborot inson nazorati ostida bo'lishi kerak. Buning uchun esa tegishli tashkilotlar tomonidan PR yo'nalishida faoliyat olib borayotgan mutaxassislarning sun'iy intellektidan samarali foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, muntazam ravishda ularni oshirib borishga qaratilgan maxsus o'quv kurslari, amaliy mashg'ulotlar hamda seminar-treninglar tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. International scientific and technical conference
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, 14.10.2024 yildagi PQ-358-son PQ-358-son 14.10.2024. Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, 14.10.2024 yildagi PQ-358-son PQ-358-son 14.10.2024. Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida
4. https://www.similarweb.com/blog/insights/ai-news/chatgpt-topped-3-billion-visits-in-september/?utm_source=chatgpt.com
5. https://keywordseverywhere.com/blog/chatgpt-users-stats/?utm_source=chatgpt.com
6. https://gov.uz/en/digital/news/view/883?utm_source=chatgpt.com
7. <https://platform.openai.com/docs/supported-countries>
8. <https://link.springer.com/book/10.1007/978-981-96-2575-8>
9. https://www.routledge.com/Artificial-Intelligence-Strategic-Communicators-and-Activism/Swiatak-Vujnovic-Galloway-Kruckeberg/p/book/9781032348308?srsltid=AfmBOoqbssSfAF2-IT-cT2HgZFQ_oK0LwM6fp55R3tzmjqYHv02G0iv
10. <https://www.routledge.com/Strategic-Communication-and-AI-Public-Relations-with-Intelligent-User-Interfaces/Moore-Hubscher/p/book/9780367628963?srsltid=AfmBOorKkmxvzJfgRgWn4SLsYJnHh5QZPS3yzTpEfus3ipfTSaYbI64>
11. https://www.dipacademy.ru/documents/8694/Doklad_Iskustvennyj_intellekt_i_geopolitika.pdf
12. <https://www.forbes.com/sites/johnkoetsier/2023/03/14/gpt-4-beats-90-of-lawyers-trying-to-pass-the-bar/>
13. <https://ronntorossian.medium.com/ai-in-public-relations-the-future-of-communication-and-strategy-ed3a6f5bd7d2#:~:text=By%20leveraging%20NLP%20algorithms%2C%20AI,brand%20maintains%20a%20favorable%20reputation>
14. Сун'ий интеллект: Имконият ва тахдидлар – HURRIYAT
15. <https://xabar.uz/tehnologiya/suniy-intellekt-tortinchi-sanoat?ysclid=m4r3ia993t688225017>
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasidagi nutqi - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasidagi nutqi
17. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi -Sun'iy intellekt — texnologik rivojlanish asosi